



AJER
AKADEMIC JOURNAL OF
EDUCATIONAL RESEARCH

ISSUE 1

**AKADEMIC JOURNAL
OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL**

FEBRUARY 2024

WWW.AJERUZ.COM

TERI LEYSHMANIOZI QO‘ZG‘ATUVCHILARINI KLINIK BELGILARGA
KO RA TAHLIL NATIJALARI VA EPIDEMIOLOGIYASI.

Tolibova Shaxlo Erkinovna

Samarqanda davlat tibbiyot universiteti assistanti, Samarqand, O‘zbekiston
shahlodadajon@gmail.com,

Sattarova Xulkar G‘ayratovna

Samarqanda davlat tibbiyot universiteti dotsenti, PhD, Samarqand, O‘zbekiston
sattarova.xulkar@gmail.com

Annotatsiya: *Leyshmanioz-bir hujayrali protozoalar Leishmania lar tomonidan keltirib chiqariladigan parazitar kasallik bo‘lib, teri leishmanioz bilan kasallanish darajasi turli mamlakatlarda turlicha tarqalgan. Bugungi kunda teri leishmanioz kasalligi qo‘zg‘atuvchilarining tur tarkibi bo‘yicha tarqalish hududlarini aniqlash juda muhim hisoblanadi. Teri leishmaniozi yaralarida leishmania qo‘zg‘atuvchilarini to‘g‘ri aniqlash, davolash usulini aniq tanlash imkonini beradi. Shu bilan birga ilmiy yangiliklarga yo‘l ochadi.*

Kalit so‘zlar: *Visseral leishmanioz, teri leishmaniozi, parazit, protozoa*

Abstract: *Leishmaniasis is a parasitic disease caused by single-celled protozoa Leishmania, and the incidence rate of cutaneous leishmaniasis varies in different countries. Today, it is very important to determine the areas of distribution of causative agents of skin leishmaniasis according to their species composition. In wounds of skin leishmaniasis, it is possible to correctly identify the causative agents of leishmania, to choose a treatment method. At the same time, it opens the way to scientific innovations.*

Key words: *visceral leishmaniasis, cochlear leishmaniasis, parasite, prosteyshie.*

Dolzarbli. *Leyshmanioz - bir hujayrali protozoalar Leishmanialar tomonidan keltirib chiqariladigan parazitar kasallik bo‘lib, ularning qo‘zg‘atuvchilarining 20 dan ortiq turlari mavjud. Tashuvchilari hisoblangan moskitlarning 90 ga yaqin turlari leishmani parazitlarini olib yurishi aniqlangan.*

Leyshmanioz 88 ta mamlakatda tarqalgan va janubiy Evropada o‘n yillar davomida endemik bo‘lgan yagona yuqadigan kasallik bo‘lgan asosiy vektorli kasallikdir. Janubiy Evropada qayd etilgan holatlarning aksariyati zoonoz visseral leishmanioz bilan bog‘liq bo‘lib, bu eng xavfli shakl bo‘lib, davolanmasa o‘limga olib keladi. Teri leishmaniozi ham mavjud bo‘lib, u visseral leishmaniozga qaraganda o‘rta xavflidir. Odamlarda leishmanioz bilan kasallanish darajasi turli mamlakatlarda turli xil darajada. Bizning taxminimizcha, bu janubiy Yevropa mamlakatlari uchun yiliga jami ≈ 700 ta leishmanioz bilan kasallanish xolatlari qayt etiladi. Italiyaning shimolida va Germaniyaning janubida mahalliy aholisi orasida visseral leishmanioz holatlari keng tarqalgan va bu kasallik shimol tarafga qarab tarqalib ketgan.

Visseral leyshmanioz (VL), shuningdek, kala-azar deb ham ataladi, agar davolanmasa, 95% hollarda o'limga olib keladi. Bu shakl isitmaning tartibsiz xurujlari, vazn yo'qotish, taloq va jigarning kengayishi, anemiya bilan tavsiflanadi. Aksariyat holatlar Braziliya, Sharqiy Afrika va Hindistonda uchraydi. Taxminlarga ko'ra, har yili dunyo bo'ylab 50 000 dan 90 000 gacha yangi VL holatlari ro'y beradi, ammo bu holatlarning atigi 25-45 foizi JSSTga xabar qilinadi. Kasallikning bu shakli avj olish va o'limga olib kelishi mumkin.

Teri leyshmaniozi (TL) keng tarqalgan kasallik bo'lib, tananing ochiq joylarida terining shikastlanishi va yaralar hosil bo'lishi bilan kechadi. Yaralar chuqur chandiqli doimiy izlar qoldirishi mumkin, TL holatlarining taxminan 95% Amerika, O'rta yer dengizi havzasi, Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo mamlakatlarida kuzatiladi. Kasallikning ushbu shaklining yangi holatlarining yillik soni 600 000 dan 1 milliongacha bo'lishi taxmin qilinmoqda, ammo JSSTga faqat 200 000 ga yaqin holatlar haqida xabar berilgan.

Shilliq qavatli leyshmanioz (yangi dunyo leyshmaniozi) burun, og'iz va halqum shilliq qavatining qisman yoki to'liq yo'q qilinishiga olib keladi. Shilliq-teri leyshmaniozining 90% dan ortig'i Boliviya (Ko'p millatli davlat), Braziliya, Efiopiya va Peruda uchraydi.

Maqsad: Teri leyshmaniozi tarqalgan hududlarda bemorlarning statistik tahlili, kasallik qo'zg'atuvchilari tomonidan turlicha ko'rinishlarida yaralarning klinik belgilari bo'yicha farqlarini aniqlash natijalari hamda leyshmanioz bilan kasallangan bemorlarning kelib chiqish hududlarini aniqlash.

Tadqiqot usullari: Tahlilda leyshmaniyalarning yaralarda uchrashi bo'yicha turlarini aniqlashda bir qator statistik-tahlil usullari bo'yicha, molekulyar-biologik usullardan xususan PCR, sekvinatsiyalardan foydalanib tahlillangan ma'lumotlardan foydalanilgan. Teri leyshmaniozi tarqalgan hududlarda 2020 yillargacha olib borilgan tadqiqotlarga oid maqolalar o'rganib chiqilgan.

Natijalar: Turkiyalik olimlar tomonidan 2017 yildan 2020 yilgacha olib borilgan tadqiqotlar TL bo'lgan 81 bemorning epidemiologik va klinik ma'lumotlari asosida o'tkazilgan. Demografik ma'lumotlarga ko'ra bemorlarning kelib chiqish jihatdan natijalar quyidagicha edi: suriyaliklar ($n=56$, 69,1%), yoshi ≤ 18 ($n=37$, 45,7%), erkaklar ($n=49$, 60,5%), boshlang'ich maktab o'quvchilari ($n=35$, 43,2%) ga to'g'ri keldi. Leyshmanioz yaralarining hosil bo'lish joylari bosh va bo'yin qismida ($n=38$, 46,9%) bo'lgan. O'tkir-quruq lokalizatsiya turi bo'yicha ($n=71$, 88%) ni, qobiqli-papula turi bo'yicha ($n=79$, 97,5%) va ikkita jarohat bo'yicha ($n=29$, 35,8%) edi. Bemorlarning aksariyati iyun oylarida qabul qilingan. Yosh bo'yicha muhim omillar joy, kasallanishlar soni va kasallikning davomiyligi edi.

2005 va 2015 yillar oralig'ida Shri-Lankada Parazitologiya bo'limiga teri leyshmanioz bo'yicha murojat qilgan 509 nafar bemorlarning teri surtmalaridan olingan namunalar tekshirilgan. Teridan olingan surtma namunalarining ba'zilarida amastigotalar tasdiqlangan. Ta'sir qilish bilan bog'liq xavf omillarini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan so'rovnomalarga ko'ra quyidagi tahlillar olingan. 509 ta klinik holatdan 41,5% ($n=211$) belgilar musbat bo'lgan. Tadqiqot populyatsiyasi 1 yoshdan 80 yoshgacha bo'lgan (o'rtacha yosh = 34,76) va eng ko'p zarar ko'rgan yosh guruhi 40-49 yoshni tashkil qilgan. Musbat natijalari bemorlarning 58,85% ini erkaklar tashkil qilgan. Ularning aksariyati

(47,86%) mamlakatning shimoliy-gʻarbiy mintaqasidan (Kurunegala) boʻlgan. Amerikaning tropik kasalliklar tibbiyoti va gigienasi instituti olimlari 104 ta teri yaralaridan olingan namunalarni mikroskopik va molekulyar genetik usullar yordamida tekshirilgan va maʼlumotlar taqqoslangan. Mikroskopik tekshirilganda namunalarning 66 (63,5%) tasida leishmanialar tasdiqlangan. Real vaqt polimeraza zanjiri reaksiyasi usuli esa 100 (96,8%) tasida leishmanialar borligi tasdiqlangan. Polimeraza usulida tahlil natijalariga koʻra leishmanialar borligi tasdiqlangan namunalarning 68,8% *Leishmania tropica* va 31,2% *L. infantum* ekanligi aniqlangan. Polimeraza zanjir reaksiyasi usulida yaralarni tahlil natijalariga koʻra: Janubiy amerikalik olimlarning tadqiqotida 51 ta namunadan 57,9% *L. tropica* va 42,1% *L. major*, eronlik mutaxassislarining maʼlumotlariga koʻra esa 219 namunadan 55% *L. tropica* va 44,5% *L. major* natijalar qayd etilgan.

Teri leishmaniozi pazrazitining DNK ketma-ketligi Shri-Lanka, Hindiston, Nepal kabi davlatlarda oʻrganilgan va ushbu nukleotidlar ketma ketligiga asosan leishmanioz kasalligining epidimologiyasi toʻgʻrisida xulosalar qilingan.

Xulosa: Teri leishmaniozining endemikdan noendemik hududlarga tarqalishining ortib borayotganligi xulosa qilindi. Leishmanioz yaralarining molekulyar usulda tahlil natijalari samarali ekanligi tasdiqlandi. Shu bilan birga baʼzi yaralarda bir necha turdagi leishmania turlari uchrashi aniqlandi.

Adabiyotlar roʻyxati:

1. Olliaro P. Standards for cutaneous *Leishmaniasis* clinical trials published. 2012. Available at. Accessed November 21, 2013.
2. Douba MD, Abbas O, Wali A, Nassany J, Aouf A, Tibbi MS, Kibbi AG, Kurban M. Chronic cutaneous leishmaniasis, a great mimicker with various clinical presentations: 2012; 26:1224–1229.
3. Yemisen M, Ulas Y, Celik H, Aksoy N. Epidemiological and clinical characteristics of 7172 patients with cutaneous leishmaniasis in Sanliurfa, *Int J Dermatol*. 2012; 51:300–304.
4. Daneshbod Y, Oryan A, Davarmanesh M, Shirian S, Negahban S, Aledavood A, Davarpanah MA, Soleimanpoor H, Daneshbod K. Clinical, histopathologic, and cytologic diagnosis of mucosal leishmaniasis and literature review. *Arch Pathol Lab Med*. 2011; 135:478–482.
5. Azmi K, Nasereddin A, Eregat S, Schnur L, Schonian G, Abdeen Z. Methods incorporating a polymerase chain reaction and restriction fragment length polymorphism and their use as a ‘gold standard’ in diagnosing Old World cutaneous leishmaniasis. *Diagn Microbiol Infect Dis*. 2011; 71:151–155.



**AKADEMIC JOURNAL OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)
international scientific journal
1-son**

Nashr qilingan sana: 25.02.2024.
Shrift: "Times New Roman".

“AJER INTER” MCHJ

Manzil: 700096, Toshkent shahri, Chilozor tumani, Bog‘iston ko‘chasi, 116/6.
www.ajeruz.com, info@ajeruz.com, +998950457172